

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “BOBURNOMA” ASARINI O’RGANISH TARIXIDAN

Karimova Maxliyoxon Ibragimjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada “Boburnoma” asari ustida nafaqat adabiyot va tarixchilar balki 20 dan ortiq mutaxassislar shug’ullanyapti (geologlar, geograflar, etnograflar). Bu borada olib borilgan baxs munozaralari haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: adabiyot, tarixchilar, mutaxassislar, shug’ullanyapti, munozaralari, etnograflar

Abstract:

In this article, more than 20 specialists (geologists, geographers, ethnographers) are working on the work "Boburnoma". It will be discussed about the discussions held in this regard.

Key words: literature, historians, specialists, engaged in, discussions, ethnographers Zahiriddin Muhammad Bobur o’z davrining yirik davlat arbobi va sarkardasi bo’lish bilan birga, hassos shoir, adib, tarjimon va yetuk olim ham edi. U o’zidan bashariyatga boy adabiy va ilmiy meros qoldirgan. Bizgacha yetib kelgan asarlarining o’zi ham Bobur ijodining ko’p qirrali, janr jihatidan xilma-xil va rang-barangligini ko’rsatadi. Uning asarlarida inson va tabiat go’zalligining muhibi, eng yaxshi axloqiy fazilatlarni qadrlovchi, ro’y bergan tarixiy voqealarni aniq aks ettiruvchi, zulm va riyokorlikni qoralovchi, tarixiy shaxslar faoliyatini xolis mushoxada qilib, olimlar, shoirlar va san’atkorlar ijodiga zamonning ilg’or an`analari nuqtai nazaridan baho bera oladigan alloma va donishmand siymosi kitobxon ko’z o’ngida namoyon bo’ladi. Bobur o’zining ana shunday ilg’or qarashlari, ilm-fan rivoji yo’lidagi xizmatlari bilan bashariyat tarixida o’chmas iz qoldirgan buyuk zot hisoblanadi.

«Boburnoma» ko’p asrlardan beri Sharq va G’arb tarixchilari hamda boshqa fan sohalari vakillarining diqqat - e’tiborini o’ziga tortib kelmoqda, ularning O’rta Osiyo, Afg’iston, Hindiston va Eron tarixini o’rganishlarida muhim manba bo’lib xizmat qilmoqda.



E.Manu 1995-yilda to'rtta turkiy (o'zbekcha) matn asosida «Boburnoma»ning tanqidiy matni e'lon qildi. 1996-yilda esa «Ko'rsatkichlar» jildini chop ettirdi. Ushbu jild mukammal so'z boshi, asardagi barcha so'zlarning to'lik ko'rsatkichi, joy nomlari, ismlar va boshqa bir qator ko'rsatkichlardan iborat. E.Manu hozirgi kunda «Boburnoma»ning yapon tilidagi to'liq tarjimasi va Bobur davriga oid yirik tadqiqotini e'lon qildi.

«Boburnoma»ni o'rganishda rus olimlari ham munosib hissa qo'shganlar. «Biron-bir munosabat bilan «Boburnoma» bilan shug'ullanmagan bironta ham yirik rus turkshunosi yo'q»ligining o'ziyoq rus sharqshunos olimlarining bu ulug' asarga naqadar katta qiziqish bilan yondashganlarini ko'rsatadi.

Bu ishni yaqin sharq tillari, xususan, arab tilining yirik bilimdoni Georg-Yakob Kerr boshlab bergan. U eski o'zbek tili bo'yicha bilimini takomillashtirish maqsadida «Boburnoma»ning qo'lyozmasidan nusxa ko'chira boshlagan va 1737-yilda bu ishni nihoyasiga yetkazgan. Bu qo'lyozma 420 varoqdan iborat bo'lган. Fanda maskur nusxani «Kerr nusxasi» deb atashadi.

G.Kerrning nusxa ko'chirishi bilan «Boburnoma» bo'yicha boshlagan ishi to'xtab qolgan va oradan salkam bir asr o'tgach, 1824-yilda rus sharqshunosi O.I.Sen Kovskiy buxorolik Tojir Nazarboy Turkistoniyga qarashli «Boburnoma» qo'lyozmasidan o'z qo'li bilan nusxa ko'chirgan. «Boburnoma» materiallarini yaxshi bilganligi sababli «Djagatayskiy yazuk» nomli maqolasida «Boburnoma»dan olingan ma'lumotlardan keng foydalangan. O.I.Sen Kovskiyning shogirdi V.V.Grigroryev «Baber-name», «Baberidu» maqolalarini yozadi. Bu yerda yana bir muhim fakti alohida ta'kidlab o'tish o'rinnlidir: rus adabiyotida Bobur Mirzoning hayoti va harbiy yurishlarini «Boburnoma»dagi ma'lumotlar asosida birinchi bo'lib yoritgan mutaxassis V.V.Grigroryev bo'ladi.

1857 yil «Boburnoma» o'rganilish tarixida muxim sana xisoblanadi. N.I.II minskiy Kozon shaxrida «Kerr nusxasi» asosida «Boburnoma»ni chop etadi. «Kozon bosmasi» deb nom olgan mazkur nashr fanda muxim vokea deb baxolandi va Garb sharkshunoslaring e'tiborini jalb kildi. bu bejiz emas edi, chunki «Kerr nusxasi»da nimaniki xato deb bilgan bulsa, olib tashlagan. Shuning uchun oradan ellik yil utgach, ingliz sharkshunosi A.S.Beverijxonim mazkur nashr va uning manbai bulmish «Kerr nusxasi»ga ishonchsizlik bildirgan.

Akademik. V.Zohidov haqli ravishda qayd qilganidek, «Rossiya va g'arbiy yevropa olimlari (Veselovskiy, Il minskiy, Erskin, Eduard Xolden va boshqalar) Boburga yuksak baho bergenlar, u tarixda kamdan kam uchraydigan favqulotda hodisa deganlar. Ular Boburni tarixdagagi o'sha vaqtlargaga qadar bo'lgan lashkarboshi,



diplomat, davllat arbobi va siyosat arboblarining eng atoqlilaridin biri, deb ataganlar. Bobur tomonidan adabiyotga, fanga kirilgan haqiqatdan ham buyuk hissani hayajon bilan qayd qiladilar».

Bu buyuk asar G'arb-u Sharq uchun qimmatbaho manba bo'lib qoldi.

«Boburnoma» asari ustida nafaqat adabiyot va tarixchilar balki 20 dan ortiq mutaxassisliklar shug'ullanyapti. (geologlar, geograflar, etnograflar) Bu borada olib borilgan baxs munozaralar O'rta Osiyo, Afg'on yurti umuman G'arb-u Sharqqa ko'prik vazifasini bajarmoqda.

Shuningdek, har bir mutarjim, muharrir va shori asarni o'z o'quvchisiga uzatar ekan, uni o'z davri, muhiti va maslagi nuqtai nazaridan tushuntirgan bo'ladi. Ammo bundan qat'iy nazar, so'zboshi, so'ngso'z, Lug'at, indeks, surat, chizma, xaritalarda berilgan ma'lumotlar biz uchun aksariyat yangi va qiziqarlidir. Bu shorixdarning fikriga, da'vosiga, mavqeiga qo'shilish yoki qo'shilmaslik mumkin, ammo ularning mehnatini munosib tarzda baholamaslikka haqqimiz yo'q. Ilmda, bahsda hammaslak kishilarning ham, mutasaddilarning ham fikrini tinglashga tegishmiz. G'arb Boburshunosligi, tarjima ma`nosida, bir yarim asrdan ziyod tarixga ega. Bu davr ichida ingliz, farang, olmon va fors, turk tillariga qilingan tarjimalar saviya va sifat jihatdan sidirg'a va bir tekis emas. Ular orasida ibtidoiy darajada jo'n va nihoyatda puxta, mukammal tarjimalar ham uchraydi. Asliyatdan hamda vositachi (ikkinchi, uchinchi) tillardan qilingan tarjimalar ham ko'p. Masalan: turkiy-forscha-englizcha, turkiy-forscha-englizcha-olmoncha va hokazo. Ammo e'tiborga loyiq bir fikrni alohida qayd etishga to'g'ri keladi. Boburdan qilingan tarjimalar tarixida o'zining nazariy puxtaligi bilan fors tarjima maktabi (Abdurahimxon ibn Bayramxon), ingliz tarjima maktabi (Leyden -Erskin, Annetta Susan Beverij xonim), fransuz tarjima maktabi (A.Pave de Kurteyl, J. L. Bakye-Grammon) hamda turk tarjima maktabini (prof. Rashit Rahmati Orat), rus tarjimachiligini (Mixail Salye) alohida ajratishga to'g'ri keladi. Jahon boburshunosligining qalbini mana shu maktablar negizida yaratilgan ajoyib tarjimalar tashkil etadi. Bu jarayonda muayyan tarjimaviy tadrijiyot, tarjimaviy tamoyillar qaror topdi. Bulardan tashqari, tarjimaviy uzviylik va vorisiylik an`anshunoslari yuzaga keldi (Leyden-Erskindan - A. Beverijgacha Pave de Kurteyl-dan - J. Bakye-Grammon - Rashit Rahmati Oratgacha, Ab-durahimxon ibn Bayramxondan Leyden Erskingacha...). Boburnoma tarjimalari negizida yuzaga kelgan Sharq-g'arb hamda ilmiy hamkorligiga xos alomatlardan biri shuki, ular mazkur qomusiy manbaga noyob yozma adabiyot obidasi deb qarab, uni umumturkiy mansublikdan umuminsoniy mulk darajasigacha ko'tardilar. Xalqaro



madaniy hamkorlik namunasiga aylantirdilar. Natijada Vaqoe` qanchalik turkiy, afg'oniy, hindiy bo'lsa, shunchalik forsiy, ingliziyl, fransaviy manbaga aylandi. Insoniy madaniy kamolot va taraqqiyotning maslagi, matlabi va timsoli o'zi shu emasmi?

Yana bir kuzatish. Harbiy tarjimalar busbutun sharqona manbalarga (qo'lyozmalar va tarixiy risolalar) tayangan bo'lgani kabi (Mirzo Mahmud Xaydar Dug'lot, Mirxon, Xondamir, Gulbadan Begim, Abulfazl Allomiy...), sharqiy tarjima (prof. Rashit Rahmati Orat) g'arb tarjimachiligi erishgan yutuqlardan (Pave de Kurteyl, Leyden-Erskin, Annetta hamda Xen-ri Beverij, Elfinston, Lyukas Uayt Kmng...) farovon istifoda etdi. Shuningdek, Hindistonda Bobur Mirzo asos solgan Boburiylar sultanatining nechuk taqdir ila Buyuk Mo'g'ullar imperiyasiyaga aylanib ketganining tarixiy va ijtimoiy-siyosiy ildizlarini ochishga harakat qilindi. Yana shunga e'tibor qaratildiki, hozirgi vaqtida garchi bu tarixiy chalkashlik bir qancha g'arb sharqshunos olimlari, ilmiy doiralar tomonidan e'tirof qilingan.

Jahon siyosati va madaniyati tarixida Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) qanday o'rinn tutsa, uning qalamiga mansub «Boburnoma» ham dunyo sharqshunosligida, jahon tarjimachiligi tarixida shunday mavqega ega. XVI asrda yaratilgan maskur asar tom ma'noda turkiy madaniyatning, xususan o'zbek ma`naviy qadriyatlarining faxrli namunasi bo'lib, uning tarjimalari ham jahon tarjimachiligi tarixida alohida bir bobni tashkil etadi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, Sharq va G'arb olimlari orasida boshqa biron asar bu qadar katta qiziqish uyg'otmagan, bu qadar sinchkovlik bilan o'rganilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jahongashta «Boburnoma», G'aybulloh as-Salom, Ne'matulloh Otajonov, Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1996 yil
2. «Boburnoma», Zahiriddin Muhammad Bobur, 1 qism, Porso Shamsiev, Sodiq Mirzaev, O'zbekiston davlat nashriyoti, Toshkent, 1948 yil
3. «Yulduzli tunlar», Pirimqul Qodirov, G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1981 yil
4. «Boburnoma», Zahiriddin Muhammad Bobur, «Sharq» nashriyoti -matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri, Toshkent, 2002 yil